

**MODDIY VA MA'NAVİY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI****Saylijeva Umida**Guliston davlat pedagogika instituti  
Pedagogika yo'nalishi 4-kurs talabasi.**Xidirova Malohat**

Ilmiy rahbar. Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti.

[xidirovamalohat848@gmail.com](mailto:xidirovamalohat848@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.18966200>

**Annotatsiya.** Har qanday jamiyat taraqqiyoti uning qadriyatlar tizimiga bevosita bog'liqdir. Qadriyatlar inson hayotining mazmunini belgilaydi, uning maqsad va intilishlarini shakllantiradi. Insoniyat taraqqiyoti davomida qadriyatlar asosan ikki turga — ma'naviy va moddiy qadriyatlarga ajralib kelgan. Ularning har biri jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi.

Ma'naviy va moddiy qadriyatlarning uyg'unligi esa taraqqiyotning asosiy omilidir.

**Kalit so'zlar:** qadr, mukammallik, ma'naviyat, halollik, insonparvarlik, ajdod, avlod, meros, oqibat, ilm, axloq, texnologiya, jamiyat, oila, yurt, erkinlik, shaxs, moddiylik, komil, e'tiqod, yurt

Qadriyat – «tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalardir»[1].

Qadriyatlarni o'z navbatida ikki turga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Bular—ma'naviy va moddiy qadriyatlar. Ma'naviy qadriyatlar insonning ruhiy olami, axloqiy qarashlari, e'tiqodi, madaniyati va dunyoqarashi bilan bog'liq tushunchalardir.

Ularga vatanparvarlik, halollik, mehr-oqibat, adolat, or-nomus, insonparvarlik kabi tushunchalar kiradi. Har qanday davlat va jamiyatda yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng oliy burch sanaladi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, hashar xalqimizda mehr-oqibat tuyg'usini tarbiyalagan, zero bugun hasharda ishtirok etgan kishi ertaga shu kopchilik unikiga ham hasharga kelishini avvaldan bilgan. Xuddi shu odat dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri Yaponiyada ham bor. «Hech qayerda uchramaydigan, faqat Yaponiyada bir-birini to'ldiradigan bir uyg'unlik bor.

Bu eng zamonaviy sanoat bilan milliylikning uyg'unligidir. Shuning uchun ham italyan jurnalistlaridan biri hayrat bilan: «Hozirgi yaponlar yuksak taraqqiyotga erishgan bo'lsa ham xulq, odat, tafakkurda bobolari, momolaridan farq qilmaydigan odamlardir», - deb yozgan.

Yaponlar yuksak texnik taraqqiyotga o'zbeklarga xos bo'lgan mehr-oqibat munosabatlarini kiritishdi va dunyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi». Demak, aytish joizki, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy taraqqiyotida qadriyatlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ham yosh avlod tarbiyasida xalq an'analari, urf-odatlari, udumlari, marosimlarining mohiyatini keng tushunishimiz darkor.

Shu o'rinda «Garb — qonunlar, Sharq — urf-odatlar asosida boshqariladi», - degan gapni eslashimiz joiz. Avvallari qonunchilik axloqiy-huquqiy qadriyatlar, turli irim shaklidagi ta'qiqlar, keyinchalik diniy e'tiqodning kuchayishi bilan «uvol» deyilguvchi ta'qiqlar korinishida amalga oshirilgan.

Masalan, o'ng to'g'ri, rostgo'ylik, chap esa egrilik, yolg'onchilikning ifodasiga aylangan. Kelajak avlodni vatanparvar, halol, mehr-oqibatli, insonparvar qilib voyaga yetkazish Amir Temur bobomizdek adolatli bo'lishliklari uchun ajdodlardan meros bo'lgan kitoblarni yoshlarga o'rgatmoqlik lozim. Har bir yosh avlod o'z ajdodlariga mos bo'lishi ular qoldirgan merosga munosib bo'lgan holda ularning nomini butun dunyoga tanitmoq uchun qadriyatlarimizni mukammal bilgan holda ularga amal qilmog'i va qadrlab borishi kerak.

Ma'naviy qadriyatlar millatning ichki kuchi va barqarorligining asosidir. Masalan, ajdodlarimiz — Alisher Navoiy va Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida inson kamolotida ma'naviyatning ustuvor o'rni borligini ta'kidlaganlar. Ular insonning haqiqiy boyligi uning axloqi va ilmida ekanini qayd etganlar. Ma'naviy qadriyatlar jamiyatni birlashtiradi, insonlarni ezgulikka chorlaydi va yosh avlod tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, pedagogik jarayonda ma'naviy qadriyatlarni singdirish yoshlarning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati, Insonni komil shaxs qilib tarbiyalaydi.

Jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi, oila va jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib insoniylik eng dolzarb qadriyatlardan biri bo'lib bormoqda.

Texnologiya asri bo'lgani uchunmi insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, do'stlik, diydor, insoniylik, sadoqat, hurmat, vafo shunchaki kitoblardagi so'zlar bo'lib qolyapti desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. To'g'ri, bir tomondan texnologiyalarning rivojlanishining yaxshi va foydli tomonlari juda ko'p, lekin insonlarni bir-birlariga dushman ham qilib qo'yayotgan va ularning ma'naviyatsizligiga sabab bo'layotgan ham aslida shu texnika emasmi?! Inson qanday jamiyat qanday asrdan yashashidan qat'iy nazar insoniylikni mahkam ushlamoq'i unga amal qilmog'i lozim. Ma'naviyatli shaxslarni voyaga yetishtirish uchun eng avvalo har bir inson o'zgarishni o'zidan boshlashi, qadriyatni qadrlamoq'i shuningdek, har bir jarayonga, vazifaga vijdonan, aql bilan yondashmoq muhimdir.

Moddiy qadriyatlar esa inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy ne'matlar — uy-joy, kiyim-kechak, texnika, ishlab chiqarish vositalari, iqtisodiy boyliklar va boshqa ashyolardir.

Moddiy qadriyatlar inson hayotining farovonligini ta'minlaydi. Murakkab ishlarni osonlashtirishga yordam beradi. Jamiyat rivojlangan sari moddiy qadriyatlarning ko'lami kengayadi. Ilm-fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyoti inson hayotini yengillashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi. Biroq moddiy boyliklar ma'naviyat bilan uyg'un bo'lmasa, ular insonni maqsadsizlik va ma'naviy bo'shliqqa olib kelishi mumkin. Ma'naviy va moddiy qadriyatlar bir-birini to'ldiradi. Faqat moddiy boylikka intilgan jamiyatda ma'naviy inqiroz yuz berishi mumkin.

Aksincha, faqat ma'naviyat bilan cheklanib, moddiy taraqqiyotga e'tibor bermaslik ham rivojlanishni susaytiradi. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma'naviy barkamollik va iqtisodiy rivojlanish uyg'unligi asosiy tamoyil sifatida qaralmoqda. Bu ikki omil birgalikda jamiyatni barqaror va qudratli qiladi.

Hozirgi globallashtirish va texnologiyalar rivojlangan davrda moddiy qadriyatlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda: Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Uy-joy va mulkka egalik qilish iqtisodiy mustaqillik belgisi hisoblanadi. Zamonaviy ishlab chiqarish davlat qudratini belgilaydi. Shu bilan birga, bugungi kunda moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida muvozanat saqlash ham juda muhim. Chunki faqat moddiy boylik emas, balki insoniylik, halollik va tarbiya ham jamiyat taraqqiyotining asosidir.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy va moddiy qadriyatlar inson va jamiyat hayotining ajralmas qismidir. Ularning ulug'vorligi bir-biriga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ma'naviyat — inson qalbining boyligi, moddiyat esa uning yashash vositasidir.

Uyg'unlik va muvozanat saqlangan taqdirdagina haqiqiy taraqqiyotga erishish mumkin.

Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy va moddiy meroslardan oqilona foydalanishimiz, har birini ko'z qorachig'idek asrashimiz, shuningdek ajdodlarga mos avlodlar bo'lishlik uchun o'zimiz ham ma'naviy qadriyatlarimizga hissa qo'shgan holda yangicha g'oya va fikrlar asosida ko'pgina manfaatli asarlar yarata olishimiz darkor. Moddiy ne'matlardan ham ehtiyotkorlik bilan foydalana olishimiz va uning hech bir zarrasini ham isrof qilmasdan kelajak avlodlarga ham yetkazishimiz asosiy burchlarimizdan biridir.

Kelajak avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik va albatta qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalamog'imiz darkor. Moddiy va ma'naviy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim tayanchidir. Moddiy qadriyatlar insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirish, turmush farovonligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilsa, ma'naviy qadriyatlar uning ichki dunyosini boyitadi, axloqiy mezonlarini shakllantiradi hamda jamiyatda sog'lom muhitni qaror toptiradi. Ularning uyg'unligi shundaki, moddiy boylik ma'naviy mezonlar bilan boshqarilgandagina chinakam taraqqiyot yuz beradi. Aks holda, faqat moddiy manfaatga yo'naltirilgan rivojlanish ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Shu bois, har qanday jamiyatning barqaror rivoji moddiy farovonlik bilan bir qatorda yuksak ma'naviyatga tayanishi zarur, moddiy va ma'naviy qadriyatlarning mutanosibligi shaxs kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir. Ularning uyg'un rivoji insonni nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki axloqiy va ruhiy jihatdan ham yetuklik sari yetaklaydi.

Islomda ma'naviyat — bu Allohga yaqinlashuv, qalb pokligi, halollik, adolat, rahm-shafqat, haqiqatparastlik kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi. Qur'oni karimda va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida inson ma'naviy komilligi eng muhim maqsad sifatida belgilangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Куронов М. Биз англаётган ҳақиқат. Т.: Маънавият, 2008. -100-бет4. Milliy istiqlol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Т.: «O'zbekiston», 2000.
2. Forobiy. Risolalar. - Т.: «Fan», 1975.
3. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jome' as-Sahih (Ishonarli to'plam). 4 kitob. 1 - kitob. - Т.: «Qomuslar Bosh tahririyati», 1991.
4. 4.Mashriqzamin – hikmat bo'stoni. Tarj., to'pl. H.Homidiy, M.Hasaniy.-Т.: «Sharq», 1997.
5. Axloq-odobga oid hadis namunalari. - Т.: «Fan», 1990.
6. Qazakhovna, K. M. (2024). ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON HEUTAGOGICAL APPROACHES. Eurasian Journal of Academic Research, 4(2-1), 178-189.
7. Dilbar, K., Toshmurodova, M., Anormatovna, N. Y., Kazakovna, K. M., Babajanova, F. F., & Yusufvna, S. D. (2024, December). Quantitative Analysis and Algorithmic Enhancement of Semantic Coherence in Multi-domain Automated Information Processing Systems. In Conference on Internet of Things and Smart Spaces (pp. 128-139). Cham: Springer Nature Switzerland.
8. Xidirova, M. Q., & Raxmonqulova, D. D. (2025). TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAHBARLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 3(2), 72-75.